

ZOMIN DAVLAT QO'RIQXONASINING FLORASI

Raxmonqulova Rayhonoy Qaxramon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

E-mail: rayhonaraxmonquoova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Zomin davlat qo'riqxonasi va u yerda tarqalgan o'simliklar haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada Zomin davlat qo'riqxonasi florasi o'r ganilish tarixi va o'simliklari haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: subdominant, avlod, flora, ekspeditsiya, endemik, Qizil kitob

FLORA OF ZAMIN STATE RESERVE

ABSTRACT

This article provides a brief overview of the Zamin State Reserve and the plants scattered there. The article presents general information about the history and plants of the study of the flora of the Zamin State Reserve.

Keywords: subdominant, generation, flora, expedition, endemic, red book

O'zbekistonda floristik va fitotsenotik turlarga boyligi bilan ajralib turadigan Zomin davlat qo'riqxonasi Sangzor daryosining yuqori oqimidagi Turkiston tog' tizmasining g'arbiy qismida joylashgan hisoblanadi. Zomin davlat qo'riqxonasida yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan osimlik turlari ko'pchilikni tashkil etadi. 1926-yilda tashkil etilgan ushbu qo'riqxona archa ormonlari, ko'p yillik o'tlar va butalar turlariga boyligi jihatidan boshqa qo'riqxonalarga o'xshamaydi. Uzoq yillar davomida floristik manba bo'lib M.G.Popov va N.V.Androsov tomonidan tuzilgan 1937-yildagi qon tomir o'simliklar ro'yxati foydalanilib kelingan. 20-asrning ikkinchi yarmidan

nafaqat qo‘riqxona hududida balki O‘zbekiston bo‘ylab keng ko‘lamli floristik tadqiqotlar o‘tkazila boshlangan. Surxon, Nurota, Chotqol qo‘riqxonalarining floristik ro‘yxati tuzildi. Zomin davlat qo‘riqxonasida (Guralash) uchraydigan o‘simpliklar haqida eng birinchi va yagona ma’lumotlar 1937-yilda nashr etilgan M.G.Popov va N.V.Androsov larning asarlari hisoblanadi. Bu asarda 368 tur keltirilgan. Urushdan keyingi yillarda E.E.Korotkova, A.D.Pyataeva, P.A.Gomolitskiylar o‘simpliklarni o‘rganishni davom ettirdilar. 20-asrda I.V.Belolipov, N.F.Rusanov, V.P.Bochantsev, F.O.Xasanov va boshqalar bu yerga turli ekspeditsiyalar uyushtirishgan va tez-tez to‘planib turishgan. Ekspeditsiyalar natijasi o‘simpliklar soni 368 tadan 694 taga yetganini ko‘rsatadi. Ammo bu raqamlar ham qo‘riqxonaning hududidagi o‘simpliklar sonini aniq aks ettirmaydi.

Zomin davlat qo‘riqxonasida 103 oila 530 avlod 1192 tur o‘simpliklar o‘sishi Xasanov.F.O, Esonqulov.A.S, va Tirkasheva.M.B lar tomonidan aniqlangan. Zomin davlat qo‘riqxonasida archazorlarni ko‘paytirish, kamyob o‘simplik va havon turlarini saqlab qolish ishlari olib boriladi. Qo‘riqxonada dasht, o‘rmon, subalp mintaqalari mavjud. Zomin qo‘riqxonasida quyidagi archa turlarini uchratish mumkin: Zarafshon archa, qora archa, saur archa va o‘rik archa. Saur archasi eng ko‘p tarqalgan archa turlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda nafaqat daraxtlar balki butalar, yarim butalar va o‘tsimon o‘simpliklar ham keng tarqalgan. Archalardan tashqari butalardan: zirk, Tyanshan chetani, uchqat, irg‘ay, tobulg‘i kabilarni ham uchratishimiz mumkin. Ko‘p yillik o‘simpliklar o‘simpliklar qoplamida subdominant sifatida juda xilma-xillikka ega. Zomin davlat qo‘riqxonasida uchraydigan 21 tur o‘simplik O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan. Qizil kitobga kiritilgan astragal, kovrak, lola, sallagul, shirach, karrak kabi turkum turlari va boshqalar soni kamayib ketayotganligi sababli qo‘riqxonada hududida himoya qilinadi. Qo‘riqxona florasining eng katta avlodlari Astragalus.L, Allium.l, Causinia Cass, Rununculus.L, Artemisia.L, Potentilla.L va boshqalar. Bu turkum vakillari turlari soni ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ferula (kovrak) turkumiga oid 2 ta tur Sumbul kovrak va Korolkov kovragi O‘zbekiston Respublikasi

Qizil kitobiga kiritilgan va endemik turlardan hisoblanadi. Soni kamayib borayotgan o'simlik turlarini asrab avaylash, ularning yo'qolib ketishining oldini olish chora tadbirlari haqida jamiyat a'zolari doimo o'z hissalarini qo'shmog'i lozim. Qo'riqxonalarda muhofaza qilinayotgan o'simliklar va hayvonot turlari haqidagi ma'lumotlar bilan aholini tanishtirishning yangicha usullarini ishlab chiqish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ularni asrab avaylash kabilar muhim masalalardan biri desak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.Хасанов.Ф.О, Эсонкулов.А.С,Тиркашева.М.Б Флора Зааминского государственного заповедника –Ташкент: REN-Poligraf, 2013.
- 2.Эсонкулов.А.С Флора Зааминского государственного заповедника Автореферат. Дисс. канд. Биол. наук –Ташкент 2012
3. Ozbekiston Respublikasi Qizil kitobi Toshkent- 2019
4. Определитель растений Средней Азии. -Ташкент. Фан. 1983.